

x x x x



JASSH


JOURNAL OF ANALYTICAL SYNERGY AND SCIENTIFIC HORIZON



IMPACT FACTOR: 9.9

ISSN: 3060-5261

Indexes:



x
x
x
x





**Journal of Analytical Synergy and Scientific
Horizon ISSN: 3060-5261 Impact faktor: 9.9
Volume 1, Issue 5, Series A 2025**

**"JOURNAL OF ANALYTICAL SYNERGY AND
SCIENTIFIC HORIZON" SCIENTIFIC-METHODICAL
JOURNAL**

10.07.2025

In this collection, the articles accepted for the " **journal of analytical synergy and scientific horizon**", Volume-1, Issue-5, 2025, are published.

DOI number was attached to all articles in the journal and indexed in the international scientific bases of **Google Scholar, ResearchGate, ISSN, Index Copernicus, Zenodo, Open Aire, Google Scholar, Advanced Science Index, J-Base, Cite Factor, International Scientific Indexing, Eurasian Scientific Journal Index, General Impact Factor, Internet Archive, Scientific Journal Impact Factor, EuroPub, COPE, General Impact Factor, Slib.uz.**

Dissertations are officially recognized as articles published in national journals on the list of journals recommended to publish the main scientific results of dissertations by OAK.

Basis: Page 3 of the list of scientific publications recommended to publish the main scientific results of dissertations of the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan. - Tashkent: 2019. - 160 p

The materials of the magazine can be used by professors, teachers, independent researchers, doctoral students, masters, students, lyceum colleges and school teachers, scientific workers and all those interested in science.

Reminder! The authors are personally responsible for the correctness of the numbers, reports, data and the correctness of the quotations in the scientific articles included in the collection of journal materials.



**"RESEARCH SCIENCE AND INNOVATION
HOUSE" LLC**



**Journal of Analytical Synergy and Scientific
Horizon ISSN: 3060-5261 Impact faktor: 9.9
Volume 1, Issue 5, Series A 2025**

TAHRIRIYAT

Bosh muharrir: Sevara Jabborova Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining magistranti

Mas'ul kotib: Boboyorov Sardor Uchqun o'g'li Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali magistranti

Nashrga tayyorlovchi: Eshqorayev Samariddin Sadridin o'g'li Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti magistranti

EDITORIAL TEAM

1. Editor of Historical sciences, **Kholiyarov. Ch, Tulkinjon** - Head of the "Social and Humanities" Department of the Termiz Institute of Engineering and Technology, doctor of philosophy in Historical science. E-mail: txoliyarov@mail.ru
2. Editor of Philology Sciences, **Allamberganova. A. Guljakhan** - Karakalpak State University, Doctor of Philosophy in Philology, Docent of Karakalpak language.
3. Editor of Pedagogical sciences, **Feruza. B. Muzafarova** - Bukhara State University, Doctor of Philosophy in Pedagogical science, Docent in theory and methodology of physical education and sports training
4. Editor of Philology sciences **Mariya D. Bekberganova** - Karakalpak State University, doctor of philosophy in Philology science(PhD)
5. Editor of Philological sciences **Zulfiya K. Ktaybekova** - Karakalpak State University, doctor of philosophy in Philology science(PhD)
6. Editor of pedagogical sciences **Eshkoraev Kahramon**- Chirchik state pedagogical University Doctor of Philosophy in pedagogical science, Termez, Uzbekistan e-mail: eshqorayev1987@mail.ru
7. Editor of technical sciences **Rakhmankulov E. Jasur**-Tashkent scientific Research Institute of Innovative Chemical Technology Doctor of Philosophy in technical science. e-mail: jasurer87gmail.com
8. Editor of the Department of Agricultural Sciences **Jurakhon N. Nadzhiev** - Advisor to the Termez Institute of Agricultural Technologies and Innovative Development, Doctor of Agricultural Sciences DSc.
9. Editor of the Department of Agricultural Sciences **Dilshod T. Jumanov** - Advisor to the Termez Institute of Agricultural Technologies and Innovative Development, Candidate of Agricultural Sciences.



10. Editor-in-chief, **Eshkaraev Sadridin Chorievich** - associate professor of the Department of Analytical Chemistry of Termiz State University, Doctor of Philosophy Chemical Science, Termez, Uzbekistan. esadir_74@rambler.ru
11. Editor of medical sciences **Ye Fan Wang Glavin**, Case Western Reserve University, United States / Chinese Academy of Medical Sciences, Peking Union Medical College, China
12. Editor-of technical science, **Eshkaraev Ulugbek Chorievich** - Associate Professor of the Department of Primary Education Methodology of Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, Candidate of Technical Sciences, Denau, Uzbekistan.
13. Editor of medical sciences **Carolyn Steele Gray**, Canada Research Chair in Implementing Digital Health Innovation (Tier 2), Canada.
14. Editor of chemical sciences **Mirabbos Hojamberdiev Ikromovich**- associate professor of the Technische Universität Berlin, doctor of chemical science, Berlin, Germany
15. Editor of Sociology science **Eryigitova Lobar Qodirovna** Head of the Department of Social Sciences and Physical Culture of CAMU International Medical University
16. Editor filological sciences **Jurayeva Ramziya Abdurahimovna** Kokand State Pedagogical Institute. Kokand, Uzbekistan Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD), senior teacher.
17. Editor of Humanitarian science **Rakhmonov Abdukahhor Abdusattorovich**
Vice-Director for Spiritual Education and Youth Affairs, Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences
18. Editor of technical sciences **Hasan Soyibnazarovich Beknazarov** Leading researcher of the Tashkent Research Institute of Chemical Technology, doctor of technical sciences, professor.
19. Editor of medical sciences **Vahidov Alisher Shavkatovich** Termez branch of Tashkent Medical Academy General surgery, children head of the department of surgery and pediatric urology Doctor of medical sciences, professor
20. Editor of biological and physics sciences **Urmanova Gulbaxor Urunbayevna** - associate Professor of Tashkent State Medical University, Uzbekistan.



**MAKTAB TIZIMIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI HAL
ETISHDA PEDAGOGIK AMALIYOTNING AHAMIYATI**

Muallif: *Abdug‘apporov Ismoiljon Qayumjon o‘g‘li*
“TIQXMMI” Milliy Tadqiqot Universiteti
“Ekologiya va huquq” fakulteti 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: *Nodira Karimova*
“TIQXMMI” Milliy Tadqiqot Universiteti
“O‘qitish nazariyasi va metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada 2024-yil 2-dekabr dan 2025-yil 30-aprelgacha Toshkent shahri Mirzo Ulug‘bek tumanidagi 142-umumta’lim maktabida olib borilgan o‘quv amaliyoti jarayonida kuzatilgan asosiy muammolar tahlil qilinadi. Xususan, o‘qituvchilarning malaka muammolari, infratuzilma yetishmovchiligi, ta’limdagi hududlararo tafovutlar, individual yondashuv tizimi va raqamli vositalardan foydalanish holatlari yoritiladi. Mazkur maqola pedagogik amaliyotning muammolarni aniqlash va ularga yechim topishdagi ahamiyatini ko‘rsatishga qaratilgan.

Abstract: This article analyzes the main problems observed during the educational practice conducted at secondary school No. 142 in the Mirzo Ulugbek district of Tashkent from December 2, 2024, to April 30, 2025. In particular, it covers the problems of teacher qualifications, lack of infrastructure, regional differences in education, the system of individual approach, and the use of digital tools. This article aims to show the importance of pedagogical practice in identifying problems and finding solutions.

Аннотация: В данной статье анализируются основные проблемы, выявленные в ходе образовательной практики, проведенной в средней школе № 142 Мирзо-Улугбекского района г. Ташкента с 2 декабря 2024 года по 30 апреля 2025 года. В частности, освещаются проблемы квалификации



учителей, отсутствия инфраструктуры, региональных различий в образовании, системы индивидуального подхода, использования цифровых инструментов. Цель данной статьи — показать важность педагогической практики в выявлении проблем и поиске их решений.

Kalit so‘zlar: maktab ta’limi, o‘quv amaliyoti, pedagogik malaka, infratuzilma, hududlararo tafovut.

Keywords: school education, teaching practice, pedagogical skills, infrastructure, regional differences, individual approach, digital technologies.

Ключевые слова: школьное образование, педагогическая практика, педагогическое мастерство, инфраструктура, региональные различия, индивидуальный подход, цифровые технологии.

Mamlakatimizda ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, turli chet el ta’lim dasturlari o‘rganilib, ular amaliyotda qo‘llanilmoqda. Maktab darsliklari ham zamonaviy standartlarga mos qilib, bosqichma-bosqich qayta ishlanmoqda. Shunday bo‘lishiga qaramay, hali hanuz oldimizda bir qancha hal etilishi kerak bo‘lgan muammolar turibdi. Bu muammolarni hal etish esa hozirda shakllanib borayotgan yosh pedagoglar oldidagi ustuvor vazifalardan biridir. Yurtimiz oliygohlarida tahsil olayotgan talabalar oliy ta’lim davomida o‘z tajribalarini boyitish va kelajakda sohalarining yetuk mutaxassisi bo‘lishlari uchun maxsus o‘quv-amaliy mashg‘ulotlar o‘tashlari belgilangan. Bu mashg‘ulotlar ularga universitetda o‘rganayotgan bilimlarini amaliyotda qo‘llash va sohadagi mavjud muammolarni o‘rganish, hamda ushbu muammolarga yechim topishga undovchi, ta’lim va kasb o‘rtasidagi o‘ziga xos bo‘lgan ko‘prik vazifasini o‘taydi.



Pedagogika jamiyatdagi eng muhim yo‘nalishlardan biridir. U maktabgacha ta’limdan boshlab, insonning deyarli butun hayotini o‘z ichiga qamrab oladi. Bundan tashqari, jamiyat uchun ertangi kadrlarni tayyorlashdek ulkan mas’uliyat, aynan pedagoglar zimmasiga tushadi. O‘quv mashg‘ulotlari esa o‘sib kelayotgan kadrlarga ertangi kunimiz bunyodkori bo‘lmish yoshlar bilan ishlashni o‘rgatuvchi muhim vositadir.

Bugungi shiddat bilan o‘zgarib borayotgan zamonda inson psixologiyasi ham vaqt sayin o‘zgarib bormoqda. Hayotimizni yengil qilayotgan internet, telefon, kompyuter kabi texnologiyalar insonni o‘z qobig‘iga o‘ranib olishi, o‘zini-o‘zi tashqi dunyodan izolatsiyalashiga ham sabab bo‘lmoqda. Bunday bir sharoitda o‘quvchilar bilan ishlashda va ularni dars jarayonlariga jalb qilishda ko‘plab muammolar tug‘ilmoqda. Boshqa bir muhim jihati shuki, dars jarayonlari uchun yangi metodlarni ishlab chiqish va shu bilan birga o‘quv amaliyotlarining ham ahamiyati kun sayin oshib bormoqda.

Ta’lim sifati bevosita jamiyat taraqqiyotiga ta’sir etadigan omillardan biridir. Ta’limning eng muhim bo‘g‘inlaridan biri esa – maktabdir. Maktab – jamiyat hayotidagi muhim institutlardan biridir. Chunki, inson 7 yoshdan 18 yoshgacha ushbu dargohda bilim olib, o‘zining kelajakdagi kasbini tanlash kabi muhim qarorlarni aynan maktab davrida qabul qiladi. 7 yoshdan (bolalik davri) 18 yoshgacha (o‘smirlikning yakuni) bo‘lgan davr oralig‘ida inson aqliy, ruhiy va ijtimoiy jihatdan tez o‘zgaradi. Xalqimizda bir maqol bor: “Yoshlikda olingan bilim – toshga o‘yilgan yozuv”. Bu bejiz emas albatta, insonning eng sermahsul davri maktab davriga to‘g‘ri kelar ekan, bu vaqtni behuda o‘tkazmaslik va bu davrda qattiq o‘qib-o‘rganishi lozim. Agar tariximizni o‘rgansak, birinchi va ikkinchi renessans ilm-fan tufayli sodir bo‘lganining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Yevropa uyg‘onishining zamirida ham faqat va faqat ilm-fan yotadi. Agar biz mamlakatimiz



ta'limini, huddi tarixdagidek, dunyodagi yetakchi ta'lim tizimlaridan biriga aylantira olsak, albatta, uchinchi renessansning ham poydevorini qo'ya olgan bo'lamiz.

Bugungi kunda maktab ta'lim tizimimizda bir qancha muammolar mavjud: tizimdagi o'qituvchilarning malaka va yangilanish ehtiyoji; infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmagani; shahar va chekka hududlardagi o'quvchilarning noteng tayyorgarlik darajasi; eski o'quv metodlari va h.k.z. Amaliyot davomida shu kabi muammolarni o'rganishga harakat qildim. Ushbu muammolar quyidagi tarzda tahlil qilinadi:

Birinchi, tizimdagi o'qituvchilarning malaka va yangilanish ehtiyojiva eski o'quv metodlari: maktablardagi, ayniqsa chekka hududlardagi, o'qituvchilar eski metodlardan foydalanishadi va bu o'quvchilarni darsga jalb qila olmaslikka olib keladi. Natijada, o'quvchilar yoki bir-biri bilan gaplashib, yoki telefoni bilan band bo'lib darsga e'tibor qaratmaydi. O'quvchilar darsga e'tibor bermagach, o'qituvchining ham motivatsiyasi pasayadi; bu holatda esa dars samaradorligi pasayadi. Bu holatni bartaraf etish uchun mutasaddi tashkilotlar qilishi mumkin bo'lgan chora bu – eski metodika bilan dars o'tuvchi o'qituvchilarni malaka oshirish dasturi doirasida qayta tayyorlash va yangi metodlarni o'rgatishdir. Ayni vaqtda biz texnologiyalar davrida yashamoqdamiz. Zamonamiz esa o'qituvchilardan dars jarayoniga kreativ yo'l bilan yondashish va zamonaviy texnologiyalar yordamida dars jarayonini qiziqarli yo'l bilan tashkil etishni talab qilmoqda. Malaka oshirish kurslarini yoshlari katta bo'lgan, hamda texnologiyalardan unchalik xabari bo'lmagan pedagog xodimlarimizni qayta tayyorlashda bizga tayanch vazifasini bajaruvchi tizim sifatida shakllantirish mumkin. Maktablarimizda faoliyat yuritayotgan va texnologiyalarni amaliyotda qo'llashda qiynaladigan o'qituvchilar sonini aniqlash va ochiqlash, hamda ularni texnologik yutuqlar bilan tanishtirishni



va bu haqida muntazam ommaga ma'lumot beribni tizimli ravishda yo'lga qo'yish zarur.

Ikkinchi, infratuzilmaning rivojlanmagani: ko'plab maktablarimizda o'quv-laboratoriya xonalari va sport zallari mavjud emas. Maktabdagi biologiya, kimyo va fizika fanlari dasturlarida laboratoriya mashg'ulotlari o'tkazilishi rejaga kiritilgan, lekin amaliyotda mashg'ulot o'tkazilishi uchun hech qanday sharoit yo'q; o'quvchilar ushbu fanlardan maxsus daftar tutib, ushbu mashg'ulotni o'taganliklari haqida hisobot yozishadi. Hisobot amaliyotda bajarilmagani uchun, uning samaradorligi past bo'lmoqda. Texnologiya fani darsliklarida ham ko'plab amaliyotda sinab ko'rish uchun topshiriqlar berilgan, lekin texnologiya xonalarida buning uchun yetarli asbob-uskunalar mavjud emas.

Uchinchi, shahar va olis hududlardagi yoshlarning noteng tayyorgarlik darajasi: ko'plab olis hudularimizdagi ta'lim sifati shahar joylarga qaraganda pastroq. Yunisefning 2020-yilgi "O'zbekistondagi bolalar vaziyatining tahlili" nomli hisobotida O'zbekistonda shahar hududida yashovchilarning qishloqdagilarga qaraganda oliy ta'lim olish ko'rsatkichi 2 baravar yuqori ekanligi ta'kidlangan.

Bu muammoni hal qilish uchun hukumat bir qancha choralar ko'rmoqda; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 12-yanvardagi "Olis hududlardagi byudjet tashkilotlariga malakali mutaxassislarni jalb qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida olis hududlarga borib ishlayotgan mutaxassislar uchun bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravari miqdorida bir martalik boshlang'ich yordam puli va ular ijaraga olgan uy-joylar uchun bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdoriga har oyda kompensatsiya to'lash; hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 471-son qarori bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida boshqa hududlardan kelib faoliyat yuritayotgan pedagog hodimlarga maxsus ustama berish to'g'risida"gi qarori; hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-oktabrdagi "Ta'lim darajasi yuqori bo'lmagan



maktablarga malakali o‘qituvchi-pedagoglarni jalb qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 646-son qarorlari shular jumlasidandir. Sobiq “Xalq ta’limi” Vazirligi 2022-2023 o‘uv yilida 1409 ta “qizil” toifadagi maktabga 500 nafar pedagog jalb etilgani; 2024-yilgi “2023-yil sarhisobi”ga bag‘ishlab o‘tkazilgan matbuot anjumanida 2023-yilda “qizil” toifadagi maktablar soni 1526 tadan 404 taga kamayganini e’lon qilgan.

To‘rtinchi, umumta’lim maktablarida o‘quvchilar bilan individual ishlash tizmi shakllanmagani: O‘zbekiston umumta’lim maktab tizimi asosan jamoa bilan ishlashga asoslangan, har bir o‘quvchi bilan alohida ishlaydigan tizimning bir nechta elementlari mavjud bo‘lsada, hali hanuz to‘liq shakllanmagan. Bunday tizim hozircha prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida qo‘llanilmoqda. So‘nggi yillarda Finlandiyata’lim tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda: fin ta’lim tizimini o‘rganish; ayrim maktablarda sinov tariqasida fin modelida darslar tashkil etish, o‘qituvchilarni malakaviy tayyorlash va b. Finlandiya ta’lim tizimi bugungi kunda jahondagi eng mashhur ta’lim tizimlaridan biri bo‘lib, “Kam yuklama, kuchli sifat” prinsipiga asoslangan. Lekin, bizning maktablarda esa o‘quvchilar soni ko‘p va yuklamalar yuqori. O‘quv rejalari va fanlar soni Finlandiyadagichalik ixcham emas. Finlandiya tizimi yuqori malakali va mustaqil qaror qabul qiluvchi o‘qituvchilarga tayansa, o‘zbek o‘qituvchilari hali hanuz “ma’ruza va nazorat” uslubida ish yuritishmoqda. Finlandiyada o‘quvchilarning ichki motivatsiyasi muhim bo‘lib, ular uchun baho ikkinchi darajada; bu borada ham kamchiliklarimiz mavjud. Qolaversa, fin tizimi texnologiyaga asoslangan o‘quv resurslarini talab etadi; ko‘plab maktablarimizda kompyuter va internet vositalari hali ham yetarli emas. Fin tizimini samarali joriy etish uchun keng ta’lim tizimida ko‘lamli islohotlar amalga oshirilishi lozim. Dars



yuklamalarini qisqartirib, fin tizimiga integratsiya qilishdan tortib maktablarning texnologik ta'minotini yaxshilashgacha...

Beshinchi, o'quvchilarning maktabga telefon olib

kelishi: ushbu masala global ta'lim tizimlarida ham ko'tarilayotgan muhim masalalardan biridir. Masalan, Fransiya maktablariga telefon olib kelish ta'qiqlangan. Angliya maktablarida esa telefonlarni sinfxonaga olib kirish mumkin emas. Lekin Finlandiyada agar o'qituvchi ruxsat bersa, ta'lim maqsadida foydalanish mumkin. O'zbekistonda ham telefonlardan faqat ta'limiy maqsadlarda foydalanish uchun ruxsat berish mumkin lekin, buning uchun qat'iy ichki intizom va o'qituvchilar va ota-onalarning o'zaro birdamligi muhimdir.

Maktab tizimidan ko'zlangan yana bir maqsad bu – o'sib borayotgan avlodga ta'lim bilan bir qatorda tarbiya berishdir. Bu borada maktab tizimi o'quvchining ota-onasi va mahalla bilan yelkama-yelka ish olib boradi. Maktab – bu faqat bilim emas, balki insoniylik, muomala, mas'uliyat va milliy qadriyatlarni o'rgatadigan dargohdir. Tarbiya bo'lmasa, ta'lim samara bermaydi. Zamonaviy o'zbek pedagogikasi otasi hisoblanmish Abdulla Avloniy shunday degan: “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”. Chunki, yetuk jamiyat qurish uchun o'sha jamiyat a'zolari har tomonlama barkamol, ma'nan yuksak shaxs bo'lmoqlari lozim. Ta'lim tizimi bizga bilimli, o'z huquqlarni biladigan va oqni qoradan ajrata oladigan fuqarolarni voyaga yetkazib berishi zarur. O'quvchilar o'qituvchilardan faqat ilm emas, balki hurmat, sabr, muloqot va odobni ham o'rganishlari zarur. Masalan, Yaponiyaning ko'plab maktablarida sinfxonalarni farroshlar emas, o'quvchi va o'qituvchilar tozalaydilar. “Souji” deb ataluvchi bu amaliyot dars jadvaliga kiritiladi va o'quvchilarga mas'uliyat hissini beradi, shuningdek ular kattalarga hurmat ko'rsatish, tabiatga e'tiborni shakllantirish, jamoaviy ishlash va mehnatni qadrlashni o'rgatadi.



Umum ta'lim maktablarimizda ham tarbiyaga asoslangan va o'zbek mentalitetini rivojlantiruvchi mana shunday tizimlarni bosqichma-bosqich va tizimli tarzda yo'lga qo'yishimiz mumkin. Masalan, Payshanba kunlarini "Tozalik kuni" deb e'lon qilib, shu kuni sanitar-gigiyenik madaniyatni rag'batlantiruvchi "eng toza sinf" nomli tadbirlarni o'tkazish; Juma kunlarini "Milliy qadriyatlar" kuni deb e'lon qilish va o'quvchilarni shu kunda milli kiyimlardamaktabge kelishga targ'ib etish va b.

Xulosa sifatida quyidagilarni ta'kidlash mumkin, umumta'lim maktablarimizda bir qancha muammolar mavjud va bu muammolar yechimi yo'q bo'lgan muammolar emas. Mavjud kamchiliklarimizni oila – mahalla – maktab va hukumat hamkorligida, birdamlikda hal etish mumkin va shu usulda samaraliroq bo'ladi. Muammolarni hal etish uchun ba'zi o'qituvchilarni malaka kurslariga jalb etish; maktab tizimida zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish tizimini yo'lga qo'yish; maktablarda individual ta'lim tizimini rivojlantirish; shahar va chekka hududlar o'rtasidagi ta'lim tafovutini bosqichma-bosqich yo'q qilish; o'quv amaliyotini talabaning o'z ustida ishlashi va bu kabi muammolarni aniqlash, hamda ularga yechim topishga qaratilgan bir tizimga ayantirish va boshqa choralar orqali yechsak bo'ladi. O'zbek maktablarida jahonning ilg'or tajribalaridan mahalliy mentalitet va sharoitlarga moslashtirgan holda keng foydalanish bolalarda nafaqat bilim, balki hayotga tayyorgarlik, jamiyatga hurmat va shaxsiy mas'uliyatni mustahkamlaydi. Zero, kelajak jamiyatining poydevorini bugungi maktab o'quvchilari tahkil etadi; aholimizning qarib 18,4 foizi (2024). Ularni bilimli, barkamol inson qilib tarbiyalash esa, bizning eng muhim vazifamizdir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 12-yanvardagi qarori: O‘lis hududlardagi byudjet tashkilotlariga malakali mutaxassislarni jalb qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida.” Lex.uz, <https://lex.uz/uz/docs/5232643>
2. “Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 471-son qarori: Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida boshqa hududlardan kelib faoliyat yuritayotgan pedagog hodimlarga maxsus ustama berish to‘g‘risida.” Lex.uz, <https://lex.uz/uz/docs/4370541>
3. “Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-oktabrdagi 646-son qarori: Ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablarga malakali o‘qituvchi-pedagoglarni jalb qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida.” Lex.uz, <https://lex.uz/uz/docs/5672312>
4. UNICEF Uzbekistan. Situation Analysis of Children in Uzbekistan 2020. UNICEF, 2020, <https://www.unicef.org/uzbekistan/en/reports/situation-analysis-children-uzbekistan-2020>
5. “Xalq ta’limi vazirligi: Qizil toifadagi maktablar soni 1526 tadan 404 taga kamaydi.” Xalq Ta’limi Vazirligi Rasmiy Sayti, 2024, <https://uzedu.uz/oz/news/2023-yil-sarhisobi>
6. Avloniy, Abdulla. Turkiy Guliston Yoki Axloq. Toshkent: Noshir, 1918
7. Sahlberg, Pasi. Finnish Lessons: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? Teachers College Press, 2011
8. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Aholining yoshi bo‘yicha taqsimoti: 2024. stat.uz, <https://stat.uz>



**SIROJIDDIN SAYYID SHE'RIYATIDA AN'ANA VA
NOVATORLIK TENDENSIYALARI**

**Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti Filologiya
fakulteti «Istiqlol davri adabiyoti va
adabiyot nazariyasi» kafedrası 4-bosqich
talabasi A'zamova Mehribon**

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatidagi janriy hamda shakliy yanilanishlar atoli shoir Sirojiddin Sayyid ijodi misolida tahlil qilinadi. Shoirning zamonaviy, modern ruhda, uslubda yozilgan asarlari hamda mumtoz she'riy janrlarning yuksak namunasi bo'lgan g'azal janridagi she'rlari, shuningdek ikkilik, tortlik shaklida g'azalga, musammatlarga monand she'rlar tahlil qilinadi.

Abstract: This article analyzes the genre and formal innovations in modern Uzbek poetry using the example of the work of the great poet Sirojiddin Sayyid. The poet's works written in a modern, modern spirit and style, as well as his poems in the ghazal genre, which are a high example of classical poetic genres, as well as poems similar to ghazals and musammats in the form of couplets and quatrains, are analyzed.

Аннотация: В статье анализируются жанровые и формальные новации в современной узбекской поэзии на примере творчества великого поэта Сирожиддина Саййида. Анализируются произведения поэта, написанные в современном духе и стиле, а также его стихотворения в жанре газели, являющиеся высокими образцами классических поэтических стилей, а также стихотворения, близкие газелям и мусамматам по форме двустиший и четверостиший.

Kalit so'zlar: an'ana, novatorlik, mumtoz she'riy janrlar: g'azal, ruboiy, erkin she'r shakllari: ikkilik, to'rtlik, ramziy-falsafiy te'ranlik.



Keywords: tradition, innovation, classical poetic genres: ghazal, rubai, free verse forms: couplets, quatrains, symbolic-philosophical depth.

Ключевые слова: традиция, новаторство, классические поэтические жанры: газель, рубай, свободные стихотворные формы: дуа, четверостишие, символично-философская глубина.

Adabiy tafakkur tarixida an'ana va novatorlik – har doim ijodiy qarama-qarshilik va uyg'unlikka mavjud bo'lgan harakatlardir. An'ana – badiiy meros, shakl va mazmun asoslarini saqlash bo'lsa, novatorlik – ularni yangicha anglash, yangicha tasvir uslubiga ega bo'lish, boyitish demakdir. Sirojiddin Sayyid ijodi bu ikki hodisaning dialektik uyg'unlikda ifodalangan namunasi sifatida ajralib turadi.

Sirojiddin Sayyid she'riyati o'zbek adabiyotida shakl va tuzilmadagi yangilikka bo'lgan intilish bilan ajralib turadi. Uning she'rlarida an'anaviy qofiyadoshlik – ya'ni qat'iy tashkil etilgan radif, qofiya, vazn tizimi bilan emas, balki ichki ohang, ritmik erkinlik, mazmuniy oqim orqali poetik ta'sir kuchini hosil qiladi. Bu holat shakl erkinligi orqali mazmunning te'ranligini saqlab qolishga, mustahkamlashga xizmat qiladi.

An'anaviy o'zbek poeziyasida, ayniqsa klassik g'azal va ruboiy janrlarida, har bir misra ma'lum vazn va qofiya tizimiga bo'ysungan bo'lishi lozim. Har bir baytda nazmiy tartib va ritmik muvozanat saqlanishi zarur edi. Ammo zamonaviy she'riyatda, xususan, Sirojiddin Sayyid ijodida bu qat'iy tartib o'rnini shoirning ichki sezgisi, fikriy oqim va emotsional kuch egallaydi. Misol uchun, shoir ba'zi she'rlarida qofiyadan butunlay voz kechadi, satrlarda vazn aniq emas, ammo shu erkinlik orqali u ko'ngil holatini, ruhiy iztirob yoki falsafiy mulohazalarni yanada tabiiy va hayotiy ifodalay oladi. Shu bilan birga, ichki qofiya, tovushlar uyg'unligi,



pauza yordamida urg'u berish kabilar orqali ohangdorlik yaratiladi.

Bu o'zbek poeziyasida XX asr oxirlarida faol namoyon bo'lgan erkin she'r (vers libre) uslubining davomidir. Sirojiddin Sayyid esa bu uslubni o'zining lirik-falsafiy dunyoqarashi bilan uyg'unlashtirib, mazmuni shakldan ustun qo'yish orqali o'ziga xos poetik uslubni yaratadi.

Misol uchun satrlar tahliliga e'tibor beramiz:

Va men —

Zamin hasratlarining

Sargashta, shtatsiz shoiri —

Qo'limda jom,

Kimlargadir baxt,

Quvonch tilay sarxush, shod turib.

Bu satrlar an'anaviy baytlar tartibida emas, lekin ruhiy ta'sirdorligi, tasvirning jo'shqinligi, falsafiy mazmuni chuqurligi bilan ongga ta'sir kuchini uyg'otadi. Bu erkin shakl shoirga ma'naviy holatni bevosita, to'g'ridan-to'g'ri ifodalashga yordam beradi.

Shunday qilib, Sirojiddin Sayyid she'riyatida she'r tuzilmasidagi erkinlik, shakldan voz kechish – bu an'anaviy shakldan voz kechish emas, balki mazmunga xizmat qiladigan novatorlik usulidir. Bu erkinlik orqali shoir zamon ruhi, inson kechinmalari, ichki to'qnashuvlar va falsafiy mushohadalarni ifodalashda yanada keng imkoniyatga ega bo'ladi.

Misol:

Bu hovli,

bu eshik,

yo'l – qariydi



Bu yerda uchta oddiy element ketma-ket sanaladi: "hovli", "eshik", "yo'l". Har bir alohida misrada qo'shimcha, bu esa sintaktik bo'linish orqali dramatik pauza yaratadi. Har bir elementga alohida e'tibor qaratiladi. Bunday uslub ko'proq zamonaviy she'riyatga xos bo'lib, forma orqali mazmuni ishlab chiqarish usulidir. Har bir misra o'zida bir voqelikni anglatadi, ammo ular uchun bog'liqlik bevosita izohlanmagan. Bu o'quvchini o'zi izlanishga, ma'noni anglashga majbur qiladi. Bu esa she'rning ochiqligini (ochiq matn) bildiradi. "Qariydi" fe'li bu yerda metaforik vaqt kechishini bildiradi. Hovli, eshik, yo'l – jonsiz narsa, ammo bu yerda ular vaqt ta'sirida "qarimoqda". Bu insonlashtirish (personifikatsiya) san'ati orqali amalga oshgan. Hovli, eshik, yo'l – bu har bir odam uchun tanish obrazlar. Ammo shoir bu oddiy, biz ko'nikkan narsa orqali hayotning o'tkinchiligi va vaqtning zabt etuvchanligini ifodalaydi. Ular qarishi – bu inson umrining, jamiyatning o'zgarishining ramzi. Hovli – yashash maydoni, eshik – kirish-chiqish, ya'ni harakat belgisi, yo'l – harakatning o'zi. Bu uchlik inson hayot yo'li metaforasi sifatida o'qilishi mumkin. Ularning "qarishi" – bu hayoti yo'lning tugab kelishi, eskirayotgani, o'tmishga aylanayotganining poetik ifodasidir. Shoir zamonaviy hayotda qadimiy qadriyatlar, ota hovlilar, qadimiy yo'llar ham unut bo'lib borayotganligi nazarda tutayotgandek. Bu esa milliy ong va xotiraning yo'qolishi degan chuqur falsafiy fikrga ishora qiladi. Sirojiddin Sayyid bu misrada juda kam so'z bilan katta falsafiy mazmuni ifodalaydi. U oddiy obrazlar orqali umuminsoniy haqiqat – umr o'tishini, odamlar qarishini, yo'qolayotgan hayot tarzi, inson izlari haqida sukutli faryodni poetik shaklda ifoda etadi. She'r shakliga ham yangilikka boy – sanash, pauzalar, sintaktik bo'linish orqali oddiy bir fikrga kuchli emotsional yuklaydi.

Bu misrada she'r shakli klassik tuzilmani buzgan, ammo mazmun keskinligi va emotsional kuchi uni san'at darajasiga ko'targan.



Har qanday yuksak san'atkor ijodida bu ikki vosita – an'anaga sadoqat va yangilikka intilish mavjud bo'ladi. XX asrning yarmi va XXI asr boshlarida ijod qilgan o'zbek shoirlari orasida Sirojiddin Sayyid ana shunday murakkab va chuqur ijodiy yo'lni tanlagan ijodkordir. Uning she'riyatida mumtoz poeziya muammolari, tasavvufiy-estetik mezonlari, g'azalxonlik an'analari bilan birga, zamonaviy shuur, falsafiy tafakkur, shaxsiy kechinmalar va yangi obrazlar tizimi o'zaro uyg'unlashgan. Shu ma'noda, Sirojiddin Sayyid she'riyati o'zbek adabiyotidagi an'ana va novatorlikning ijodiy sintezi sifatida ajralib turadi. Shoirning lirik kechinmalarida, badiiy mushohadalarida qadimiy she'riy shakllarning zamonaviy mazmuni bilan to'ldirishi, ichki ritm va ohangning modern poetikaga xos obrazlar tizimidagi erkinlik va ramziy-falsafiy teranlik uning poeziyasini an'anaviy asosda novatorlik ruhida yangi ijodiy makonga aylantiradi. Shu bois, Sirojiddin Sayyid ijodi adabiyotimizda an'ana yangilanishning dialektik birligi sifatida o'rganishga arzigulik hodisadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Aristotel. Poetika. Axloqi kabir. Ritorika. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011. – 352 b.
2. Саййид Сирожиддин. Асарлар. I жилд. Шеърлар. Достонлар. Насрий оҳангларда. – Тошкент: Шарқ, 2018. – 480 б.
3. Саййид Сирожиддин. Асарлар. II жилд. Шеърлар. Достонлар. Қирқ ҳадис. Насрий оҳангларда. – Тошкент: Шарқ, 2018. – 568 б.
4. Саййид Сирожиддин. Асарлар. III жилд. Шеърлар. Достон. Ғазал дафтари. Насрий оҳангларда. – Тошкент: Шарқ, 2019. – 576 б.
5. Саййид Сирожиддин. Асарлар. IV жилд. —Хамсал ҳайратлари маърифий достон. Тун билан тонг. Тўртликлар. Шеърлар. Ғазал дафтари. Таржималар. Насрий оҳангларда. – Тошкент: Шарқ, 2018. 608 б.



**JAHON ADABIYOTIDA FENTEZING TUTGAN
O'RNINI: TURLARI VA TASNIFI**

Xujaqulova Aziza Elbek qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) fakulteti

2-kurs talabasi Xujaqulova Aziza

Annotatsiya: Maqola adabiyotshunoslikda yangi janr sanalgan va adabiyotshunoslar hamda munaqqidlar o'rtasida yetarlicha bahs-munozaralarga sabab bo'layotgan “fentezi” atamasining paydo bo'lishi, tasnifi va uning rivojlanish masalalariga bag'ishlangan. Ilmda fentezining fantastikadan farqi, bu atamaning turlari va ularning qo'llanish o'rni muhokama qilingan. Jahon adabiyotshunosligida bu janr asosida yozilgan asarlar xususidagi ilmiy-nazariy fikrlar muallif tomonidan bildirilgan.

Аннотация: Статья посвящена возникновению, классификации и развитию термина “фэнтези”, который считается новым жанром в литературной критике и вызвал много споров среди литературоведов и критиков. Наука обсуждает разницу между фэнтези и художественной литературой, типы этого термина и роль их использования. В мировом литературоведении автор высказывал научно-теоретические соображения относительно характера произведений, написанных на основе этого жанра.

Abstract: The article is devoted to the emergence, classification and development of the term “fantasy” which is considered a new genre in literary criticism and has caused considerable controversy among literary scholars and critics. In science the difference of fantasy from fiction, the types of this term and their application are discussed. In science, the difference of fentesis from fiction, the



types of the term and their place of application are discussed. In world literary studies, scientific and theoretical opinions on works written on the basis of this genre were expressed by the author.

Kalit so'zlar: Fentezi, XX asr voqelari, mif, ertak, qahramonlik asarlari, jahon adabiyoti.

Ключевые слова: фэнтези, события XX века, миф, сказка, героические произведения, мировая литература.

Keywords: Fantasy, events of the 20th century, myth, fairy tale, heroic works, world literature.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda adabiy yo'nalishlar takomillashib, ularning ommalashib borishi natijasida turli janrdagi asarlar yaratilmoqda. Qolaversa, fan va texnologiya rivoji, hamda globallashuv kabi jarayonlari adabiyotga ham yangi kayfiyat bag'ishladi. Darhaqiqat, insonlarning yashash sharoiti o'zgarishi bilan adabiyot ham o'zgaradi, bu esa adabiyotga yangi janrlarni, yangi yo'nalishlarni olib kiradi. Jahon adabiyotida, xususan ingliz adabiyotida yangidan yangi yozilgan asarlar o'z ma'no-mazmuni, ajoyib voqea-hodisalari bilan ko'pchilikning e'tiborida bo'lib, minglab insonlar tomonidan o'qib kelinmoqda. Bu esa o'z navbatida yozuvchilarning yangi janrlarga nisbatan e'tiborining oshishi va ularning bu yo'nalishlarda yetarlicha ijod qilayotgani mahsulidir.

Fentezi janri hozirgi kungacha olimlar orasida eng katta muhokamalarga sabab bo'lib kelgan. Bu janr xususida olimlar ko'p izlanish olib borish orqali, uning xususiyatlarini ochib bergan. Fentezi, aslida, (inglizcha: fantasy - "fantaziya") XX asrning ikkinchi yarmidan buyon rivojlanib kelmoqda. Fentezini ma'lum bir model tizimiga solish imkonsizdir. Fentezida mif, tarixiy asar, ishq-muhabbat haqidagi asar



,xalq ertaklari va masallarini guvohi bo'lamiz.Zamonaviy fentezi adabiyotining rivojlanish bosqichida ularni kengroq o'rganib chiqish muhimdir.

XX asrda olimlar orasida bu janrga bo'lgan qiziqish oshdi.Bu janr xususida ko'pdan ko'p muzokaralar olib borildi.Fentezi romanlari nashr ettirildi.Bu romanlar shakllanishida turli xil sehrlil mavjudotlar,ertak va afsonalar qahramonlari katta ahamiyat kasb etdi.Mif,ertak va afsonalardan salmoqli foydalanish bu janrni yanada yuksaltirdi. Mif-koinotning yaratilishi, inson, o'simliklar va hayvonot dunyosining vujudga kelishi, samoviy jismlarning paydo bo'lishi, tabiiy hodisalarning sabablari va mohiyati, afsonaviy qahramonlar, ma'budlar va ilohlar to'g'risidagi e'tiqodiy qarashlarni o'z ichiga olganqadimgi odamning borliq olam haqidagi ibtidoiy tasavvurlari majmui hisoblanadi.Miflardagi hodisalarda sehr-jodu asosiy vosita sifatida tasvirlanadi.Shu sababli ham mif fentezi asarlarining yaratilishidagi eng asosiy omillardan biridir.

Shu bilan birgalikda ertaklar ham fentezida muhim ahamiyat kasb etadi. Ertak-xalq og'zaki ijodi bo'lib,folklor janrida rivojlanib kelmoqda. Ertaklar o'zining qirol va qirolichalari, shahzoda va malikalari,gapiradigan hayvonlari,yalmog'iz kampirlari va jodugarlari,hamda odamxo'r maxluqlari bilan qiziq hisoblanadi.Ertaklarning fentezi bilan aloqadorligi shundaki,ularning ikkalasida ham voqelik noreallikda sodir bo'lishidadir.Fentezi asosan ertaklar qonuniyati asosida yaratiladi va ulardagi syujetlar tizimini o'zgartiradi.

XX asrda fentezi janri faqat romanlar bilan chegaralanib qolmadi. Bu davrga kelib,O'rta asr madaniyatidan darak beruvchi hikoyalar fentezi bilan bog'landi. Bu jarayon Britaniya orolida yashovchi Anglo-Saksonlarning epik asari sifatida mashhur " Beovulf" asarining yaratilishi bilan boshlandi. Beovulf odamxo'r maxluqlarga qarshi kurashadigan xalqning jasur qahramoni sifatida aks ettirildi.Keyinchalik,buning davomi sifatida Qirol Artur afsonalari yuzaga



chiqdi. Ritsarlik romanlarida keltirilishicha, uning makoni bu - Avalon oroli. Bu joy o'zga olamdagi eng tinch va barcha narsalarga ega bo'lgan joy sifatida ko'rsatiladi. Ritsarlik romanlarida qahramonlik tuyg'usi yuqoriroq bo'ladi. Asosiy obrazlar jasur, mard, xalqiga yordam beradigan inson qiyofasida tasvirlanadi. Voqealar esa o'rta asr adabiyoti va tarixiga oid bo'lgan "qilich va sehrgarlik" - tushunchasi asosida sodir bo'ladi.

Demak, fentizining kelib chiqishi epik turlarning uyg'unlashuvi bilan bog'liq. Ba'zi asarlar mif va ertaklar bilan uyg'unlashgan bo'lsa, boshqalari esa ritsarlik asarlari bilan hamohangdir. Shunda miflar, ertaklar, ritsarlik romanlari fentezining asosiy komponentlari ekanligi ma'lum bo'ladi.

Fantastika-(qadimgi yun. phantastike — xayolan tasvirlash san'ati) naturalizm va realizm yo'nalishidagi san'at. Fantastika zamirida realizm ham ba'zi o'rinlarda mavjud bo'ladi. Shuningdek, bu janrda ham fentezidagi kabi mif, ertak va afsonalar voqealar, xayoliy obrazlar ishtirok etadi. Fantastikaning boshqa adabiyot turlaridan asosiy farqi, bu uning tasvir sohasi amalda mavjud bo'lgan hayot emas, balki turmush haqidagi umumiy tasavvurdan kelib chiqadigan hayotdir. Fantastikaning maqsad va vazifalari faqat inson orzusini emas, balki kelajakda kutiladigan xatardan ogoh qilish, estetik zavq berish hamdir. Fentezi janrini ko'pchilik insonlar fantastika bilan adashtirishadi. To'g'ri, ularning ba'zi o'xshash tomonlari bor, biroq bu ular bir xil janr degani emas.

Fantastika-(qadimgi yun. phantastike — xayolan tasvirlash san'ati) naturalizm va realizm yo'nalishidagi san'at. Fantastika zamirida realizm ham ba'zi o'rinlarda mavjud bo'ladi. Shuningdek, bu janrda ham fentezidagi kabi mif, ertak va afsonalar voqealar, xayoliy obrazlar ishtirok etadi. Fantastikaning boshqa adabiyot turlaridan asosiy farqi, bu uning tasvir sohasi amalda mavjud bo'lgan hayot emas, balki turmush haqidagi umumiy tasavvurdan kelib chiqadigan hayotdir. Fantastikaning



maqsad va vazifalari faqat inson orzusini emas, balki kelajakda kutiladigan xatardan ogoh qilish, estetik zavq berish hamdir. Fantastikada ham qator asarlar yozildi va ulardan eng ajoyib namunalari quyidagilardir: J. Sviftning "Gulliverning sayohatlari", A. Dantening "Ilohiy komediya"si, M. Tvenning "Tom Soyerning sarguzashtlari", Gyotening "Faust", M. Bulgakovning "Ityurak" va boshqa asarlar.

Fantastikaning fentezidan asosiy farqi, yuqorida aytilganidek, fantastika- real voqelikka bog'liq bo'lgan olamni aks ettirsa, fentezi esa noreal xayoliy to'qima va o'ydirmalarni, hamda ikkinchi olamdagi voqelikni aks ettiradi. Mana shunday to'qimalar qaysi bir syujetni aks ettirgan mavzuga qarab fentezi bir nechta subjanrlarga bo'linadi (ertak fentezi, qahramonona fentezi, tarixiy fentezi, afsonaviy fentezi va boshqalar).

Ertak fentezi-bu turdagi kitoblar xuddi haqiqiy ertaklar singari axloq va saboqlarni o'z ichiga oladi va ular asosan yosh auditoriyaga qaratilgan bo'ladi. Bunga misol qilib M. Meyer tomonidan yozilgan "Oy yilnomalari" kitobi olinishi mumkin.

Qahramonona fentezi - yovuzlikka qarshi kurashish uchun jangga ketayotgan mard obrazlarni o'z ichiga oladi. Ular asosan yurtga sodiq, xalqa g'amxo'r shaxslar sifatida tasvirlanadi. Mana shunday subjanrning yaqqol misoli J. Aberkrobmbining "Birinchi qonun" asaridir.

Tarixiy fentezi - bu kichik janr ma'lum bir tarixiy davrda sodir bo'ladi va o'sha davr voqealari aks ettiriladi. Masalan, S. Kuperning "Zulmat ko'tarilmoqda" asari aynan tarixiy fentezi o'zida aks ettiradi.

Afsonaviy fentezi - bunda afsona va undagi qahramonlar xayolotning yuqori darajasida tasvirlanadi. Afsonalardan foydalangan holda kitobxon e'tiborini yaqqol tortadi. U. K. Le. Guinning "Laviniya" asari o'zida afsonaviy xayolotni jamlantiradi.



Umuman fentezi janrida a'lo darajada yozilgan roman turkumlari bu janrga bo'lgan diqqatni yanada japb etmoqda. Mana bu kitoblar dunyo aholi o'rtasida ko'plab qiziqishga sabab bo'lgandir. Bular: J. Tolkinin "The Lord of the rings" (Uzuklar hukmdori), J. Martinning "A song of ice and fire" (MUz va olov qo'shig'i), J. Roulingning "Harry Potter" (Garri Potter), K. Lyuisning "The chronicles of Narnia" (Narnia xronikalari) kabi asarlaridir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Yevropa adabiyotida juda katta o'rinni egallagan fentezi - oddiy bir janr emas. Bu janr inson xayolini band etib, shu ondayoq g'oyib bo'luvchi noreal olamni o'z ichiga oladi. U insonga har jihatdan ta'sir qilib, uning xayolot dunyosini boyitadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. U. Hamdamov, A. Qosimov. Jahon adabiyoti (O'quv qo'llanma). Toshkent. "Barkamol fayz media". 2017. 283-301bb.
2. U. Hamdamov. Jahon adabiyoti modernizm va postmodernizm.- Toshkent. Akademik nashr. 2020. 58b.
3. D. Nasriddinov. Jorj Martin fentezi asarlar poetikasi (dissertatsiya). Toshkent. 2021. 11-27bb.
4. Internet manbalari: .com/2013/05/the-problem-with-the-fantasy-genre-is/#
5. <https://reedsy.com/discovery>
6. http://www.starsuncounted.com/p/kinds-of-fantasy_15.html
7. <http://bestfantasybooks.com/>
8. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Bosh_Sahifa



YAPON TILI VA O'ZBEK TILIDAGI HURMAT SHAKLLARI QIYOSIY TAHLILI

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari universiteti

Sharq filologiyasi fakulteti, FYAP2410 guruh talabasi

Xolboyeva Farangiz Ibrohim qizi

Annotatsiya: Dunyoda har bir jamiyatning o'zligi mavjud bo'lib, unda xalqning madaniy hayoti, jamiyatdagi kishilar bir-biriga bo'lgan muloqoti kabi jihatlari tushuniladi. Shu jihatdan yapon va o'zbek xalqlarining so'zlashuv nutqi ham ushbu xalqlarning o'zligi hisoblanib, ularni o'rganish ikki xalqning muloqot madaniyati haqida churroq tushunchaga ega bo'lishga imkon beradi. Ushbu maqolada yapon xalqining qadimdan shakllanib kelgan 敬語 けいご-keigo ya'ni hurmat shakli va o'zbek xalqidagi hurmatning ifoda etilish uslublari haqida batafsil yoritib beriladi va ikki xalq ,ikki xil madaniyatning o'xshash jihatlari solishtirib yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: keigo, yapon , o'zbek, xalq, madaniyat, so'zlashuv uslubi, sonkeigo, kenjougo, teineigo

Аннотация: каждое общество в мире имеет свою идентичность, под которой понимаются такие аспекты культурной жизни людей, как общение людей в обществе друг с другом. В этом отношении разговорная речь японского и узбекского народов также является самобытной для этих народов, изучение которой позволяет лучше понять культуру общения двух народов. В этой статье будет подробно рассказано о давней форме уважения японского народа 敬 odaoda-Кейго ,то есть о способах выражения уважения у узбекского народа, и будет освещено сравнение схожих аспектов двух народов, двух разных культур.



Ключевые слова: Кейго, японский, узбекский, народный, культура, разговорный стиль, sonkeigo, kenjougo, teineigo

Abstract: Every society in the world has its own identity, which includes aspects such as the cultural life of the people and the communication between people in the society. In this regard, the spoken speech of the Japanese and Uzbek peoples is also considered the identity of these peoples, and studying them allows us to have a better understanding of the communication culture of the two peoples. This article provides a detailed explanation of the long-established Japanese language 敬語 けいご-keigo, that is, the form of respect, and the methods of expressing respect in the Uzbek people, and compares and highlights the similar aspects of the two peoples and two different cultures.

Keywords: keigo, Japanese, Uzbek, people, culture, style of speech, sonkeigo, kenjougo, teineigo

Yaponlar orasida qadimdan ijtimoiy pog'onaga e'tibor kuchli bo'lgan va hozir ham davom etmoqda. Buni insonlarning nutq jarayonidagi yoshi, kim ekanligi va vaziyati taqazosida muamala qilinishining farqlanishi va bu farq shunchaki farq emas balki buning uchun alohida so'zlardan foydalanilishidan ham bilish mumkin. Bunda 敬語 けいご keigo (xushmuomalalik iboralari) dan foydalaniladi.¹ Xushmuomalalikning 3 xil shakli mavjud bo'lib, ulardan so'zlovchi va suhbatdosh yoki 3-shaxs o'rtasidagi o'zaro munosabatlardan kelib chiqqan holda foydalaniladi. けいご ni qo'llashning 3 asosiy holatlari mavjud: 1. Agar so'zlovchi suhbatdoshidan kichikroq yoki ijtimoiy mavqeyi pastroq bo'lsa;

¹ Suzuki, T. (2005). Japanese Honorifics and Social Hierarchy. Tokyo: Tokyo University Press.



2. Agar so'zlovchi o'z suhbatdoshi bilan notanish va birinchi bor ko'rishib turgan bo'lsa ;

3. shuningdek **うち—そと**(uchi-soto) ichkari va tashqari munosabatlariga ham e'tiborli bo'lishi lozim. So'zlovchi mansub bo'lgan ijtimoiy guruh **うち** uchi ya'ni uy/ichkari , boshqa guruh **—そと** soto ya'ni tashqari tarzida tushuniladi. Agar so'zlovchi **うちの人** uchinohito ichkari yoki oila vakili bo'lgan shaxsning bajargan ish-harakatini **そとの人** sotonohito tashqari odamiga nisbatan qo'llamoqchi bo'lsa , hattoki o'zi mansub bo'lgan guruh vakili o'zidan katta yoki yuqori martabali shaxs bo'lsa ham, xuddi o'ziga nisbatan qo'llaydigan kamtarinlik shaklidan foydalanishi mumkin. **敬語**けいご keigo turlari:

1. 尊敬語そんけいご sonkeigo(hurmat shakli)

2. 謙讓語けんじょうご kenjougo(kamtarinlik shakli)

3. 丁寧語ていねいご teineigo(xushmuomalalik shakli)

尊敬語そんけいご sonkeigo hurmat shakli hisoblanib unda fe'llarning maxsus shaklidan foydalaniladi. Misol; **言います** (iimasu) — aytaman → **おっしゃいます** (osshaimasu) — aytmoq (hurmat bilan) . Rahbar, o'qituvchi, mijoz kabi mavqei yuqori shaxs haqida gapirganda qo'llaniladi. Bundan tashqari ot, sifat va ravish oldidan **お**(o') yoki **ご**(go') ni qo'llab maxsus hurmat shakli mavjud bo'lmagan so'zlarning hurmat shaklini yasash mumkin. **謙讓語**けんじょうご kenjougo(kamtarinlik shakli) da o'z harakatlaringizni mijoz, mehmon, yuqori martabali shaxs oldida pastga olishda ishlatiladi. Ushbu kamtarinlik shaklida ham fe'llarning maxsus shakllari mavjud. Masalan; **言います** (iimasu) — aytaman → **申し上げます** (moushimasu) — aytaman (kamtarlik bilan). **丁寧語**ていねいご



teineigo(xushmuomalalik shakli) Oddiy hurmat shakli bo‘lib, har qanday rasmiy va kundalik vaziyatda qo‘llanilishi mumkin. Misol: 行く (iku) — boraman → 行きます (ikimasu) — boraman (odob bilan); きれい (kirei) — chiroyli → きれいです (kirei desu) — chiroyli (muloyim shaklda): Tanish bo‘lmagan shaxslar, mehmonlar bilan yoki umumiy suhbatlarda qo‘llaniladi²

Umumiy qilib aytganda:

Sonkeigo — boshqa odamni hurmat qilish.

Kenjougo — o‘z harakatingizni pastga olib gapirish

Teineigo — oddiy muloyimlikning ifodasi hisoblanadi³

O‘zbek tilidagi hurmatlilik shakllari. O‘zbek tili va madaniyatida ham jamiyatda bir-birini hurmatlash, ezozlash muhim jihat hisoblanadi. Bunda muloqot jarayonida sizlash, so‘zlar so‘nggida lar qo‘shib ifodalash imkoni mavjud. Nafaqat o‘zidan kattalar, ustoz-murabbiylar, keksalarga va ota-onalarga nisbatan balki o‘zidan kichik bo‘lgan yoshdagi shaxslar va o‘zi bilan tengqur bo‘lgan kishilarga murojaatda ham ishlatiladi. ⁴

Masalan; kel (oddiy buyruq shaklda) _ keling(hurmat ma’noda)

Bundan tashqari ba’zi bir so‘zlarni hurmat yuklab murojaat qilishda ham ishlatish mumkin: taqsir, janob kabi holatlarda ham sizlab gapirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bundan ko‘rinib turibdiki o‘zbek tilidagi sizlash juda muhim o‘ringa ega . Bu orqali kishilar o‘zlarining kamtarin muomalasini saqlashadi, kishilarga hurmatini namoyon qiladi va xuddi shunday o‘zlarining hurmat-

² Japan Foundation. (2020). Introduction to Keigo.

³ Ishikawa, Y. (2010). Sociolinguistic Politeness in Japanese. London: Routledge.

⁴ “O‘zbek tilida muomala madaniyati”, www.ziyouz.uz, 2022-yil. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/til-va-adabiyot/ozbek-tilida-muamala-madaniyati/>



ehtiromlarini yanada qadrligi ekanligini anglatadi. Lar shakli fe'ning ham ot ning ham so'nggida birdek qo'shiladi. Masalan; onam keldi (oddiy shakl ammo hurmatsizlik emas) onamlar keldilar (hurmat shakl).

Nutq jarayonidagi suhbatdoshga bo'lgan hurmat va ishonchni nafaqat so'z va yumshoq iboralar ishlatilish bilan isbotlanadi, balki shu o'rinda so'z ohangidagi yumshoqlik, yoqimlilik va kishiga tabassum bilan gapirish ham suhbatdoshga bo'lgan hurmatni namoyon qiladi. Bunday muloqot madaniyati o'zbek tilida qadimdan shakllanib kelingan va o'zbek xalqining o'zligi, sha'ni va iftixorining yorqin namunasi hisoblanadi.

Demak, har ikki til ham hurmat shakllarini juda qadrlaydi va o'ziga xos uslubda ifodalaydi. Quyida yapon va o'zbek tilidagi hurmatni bildirish shakllari qanday ekanligi taqqoslanadi. 1) Yapon tilida hurmatni ifodalash juda qat'iy belgilangan va buning uchun alohida bo'lgan けいご keigo dan foydalaniladi. O'zbek tilida esa nisbatan sodda bo'lgan sizlash uslubi yoki so'z ohirida lar qo'shiladi. 2) Ko'pchilik fe'llarning tubdan boshqa shaklda o'zgarishini yapon tilida guvohi bo'lgan bo'lsak, o'zbek tilida maxsus fe'l o'zgarishlari yapon tiliga qarama-qarshi juda kam bo'lib -siz, -ing qo'shimchalari yetarli. 3) suhbat jarayonida qat'iy そんけいご sonkeigo ga rioya qilinadi. O'zbek tilida esa norasmiy -sen ; rasmiy -siz qo'shimchalarini qo'llash orqali farqlanadi.⁵

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yapon tilida hurmatni ifodalash juda qat'iy va ko'p so'zlar hurmat shakliga tubdan o'zgarganligini ko'rdik. Bunda 敬語けいご ning ishlatilishi yorqin namuna. O'zbek tilida esa yapon tilidagichalik qat'iy bo'lgan qoidalar yo'q. Ammo shunga qaramay til va madaniyat uyg'unligi natijasidagi paydo bo'lgan hurmat shakllari; sizlab chaqirish yoki ohangdagi yumshoqlik

⁵ Comrie, B. (1981). Language Universals and Linguistic Typology. Oxford: Blackwell Publishing.



mavjud. Ikki tilda ham ikki madaniyatda ham suhbatdoshning hurmatiga bo'lgan e'tibor tahsinga sazovor. Va ular shu ikki tilning va butun xalqning namunasi, yuzi deb anglanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Suzuki, T. (2005). Japanese Honorifics and Social Hierarchy. Tokyo: Tokyo University Press.
- 2.Comrie, B. (1981). Language Universals and Linguistic Typology. Oxford: Blackwell Publishing.
- 3.Ishikawa, Y. (2010). Sociolinguistic Politeness in Japanese. London: Routledge.
4. Xudoyberganova, D. (2016). O'zbek tilshunosligi asoslari. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
- 5.Vakhabova, X. (2022). Linguistic and cultural analysis of the concept “politeness” in the Uzbek information field. *Semiotica*, 258, 73–91. <https://doi.org/10.1515/sem-2023-0141>
- 6.Derible, A. (2024, June 7). Gender- and age-related constraints in Japanese politeness marking: A statistical analysis of the Tokyo Story characters' usage of keigo. *International Linguistics Research*, 7(2), 13. <https://doi.org/10.30560/ilr.v7n2p13>
- 7.Ziyouz.uz. (2022). O'zbek tilida muomala madaniyati. Retrieved from <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/til-va-adabiyot/ozbek-tilida-muamala-madaniyati/>
- 8.Japan Foundation. (2020). Introduction to Keigo. Retrieved from <https://www.jpff.go.jp/e/project/japanese/teach/keigo/>



BROKA AFAZIYASI VA UNING NUTQDA AKS ETISHI

Nazarova Sabrina
Namangan davlat universiteti
Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: PhD., dots. Umidjon Qo'ziyev
E-mail: nazarovasabrina046@gmail.com

Annotatsiya: Zamonaviy tilshunoslikning muhim yo'nalishlari – neyrolingvistika hamda klinik lingvistika inson miyasidagi o'zgarishlar va jarohatlarning nutqqa, fikrlashga ta'sirini o'rganadi. Biz ushbu maqolada afaziyaning Broka turi haqida umumiy ma'lumot berib, lingvistik tavsif bermoqchimiz.

Kalit so'zlar: Vernike afziyasi, Broka afaziyasi, amnestik afaziya, sindrom, semantik jihatlar.

Аннотация: важные области современной лингвистики – нейролингвистика, а также клиническая Лингвистика-изучают влияние изменений и травм человеческого мозга на речь и мышление. В этой статье мы хотим дать лингвистическое описание, дав обзор типа афазии Брока.

Ключевые слова: предпочтение Вернике, афазия Брока, амнестическая афазия, синдром, семантические аспекты.

Abstract: Important fields of modern linguistics – neurolinguistics, as well as clinical linguistics - study the effects of changes and injuries to the human brain on speech and thinking. In this article, we want to give a linguistic description by giving an overview of the type of Broca's aphasia.

Keywords: Wernicke's preference, Broca's aphasia, amnesic aphasia, syndrome, semantic aspects.

Uchta asosiy afaziya sindromi bor – Vernike afziyasi, Broka afaziyasi va Amnestik afaziya – nevrologik adabiyotlarda tez-tez tasvirlangan bo'lib, ular asosan



nutq naqshidagi o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. So'nggi vaqtlarda tilni qabul qilish (input) va ishlab chiqarish (output) o'rtasidagi farqqa asoslangan terminologiya ommalashgan bo'lsa-da, bu yondashuv amalda afaziya sindromlariga to'g'ri kelmaydi va noto'g'ri masalalarni keltirib chiqaradi va biz Broka afaziyasining bir nechta o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

Broka afaziyasi – bu miyaning Broka markazi (chap yarimsharning pastki peshona sohasida joylashgan) shikastlanishi natijasida yuzaga keladigan til va nutq buzilishi. Bu afaziya turi bilan og'riqan bemorlar nutqni tushunish qobiliyatini qisman saqlab qoladilar, ammo gapirish va grammatik jihatdan to'g'ri jumlar tuzishda jiddiy muammolarga duch keladilar. Broka afaziyali bemorlar nutqining eng e'tiborga molik xususiyatlaridan biri – agrammatizm, ya'ni “funktional” so'zlar va fleksiyali morfemalarning tushirib qoldirilishidir. Agrammatizm, odatda, sintaktik nuqsonning belgisi sifatida qaraladi. Biroq, bunday yondashuv grammatik tizimlilikdan holi ekanligi alohida ta'kidlanadi va faqat fonologik tuzilma nuqtayi nazaridan izoh yagona izchil va tizimli hisoblanadi. Tabiiy sinf – “funktional” so'zlar va ba'zi bog'liq morfemalar – fonologik so'zlarni tavsiflaydigan bo'g'in xususiyatlarga asoslanib aniqlanishi mumkin. Aynan shu unsurlar agrammatik nutqda tushirib qoldiriladi. Nafaqat bir afazik sindromni talqin qilish uchun gipoteza taklif qiladi, balki lingvistik nuqsonlarni tushuntirishda grammatik tuzilmaning universallarini sinchkovlik bilan o'rganish samaradorligini sinash va namoyish qilishni ham ko'zda tutadi.

Broka afaziyasida ko'pincha kuch sarflab gapirish va nisbatan to'g'ri tushunish holatlari birga uchraydi. Agrammatik afaziyali bemorlar va neyrologik bo'lmagan bemorlar, turli jumladan so'zlarni tanlab, ularning har bir jumladagi o'zaro



qanday bog‘liqligini his qilish asosida tasnifladilar. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Broka afaziyasi bo‘lgan bemorlar:⁶

- Grammatik tuzilmalarga asoslangan so‘zlarni ishlab chiqishda qiyinchiliklarga duch keladi, bu esa ularning jumla tuzish qobiliyatiga ta’sir qiladi. Garchi Broka afaziyasi bemorlarining nutqi agrammatik bo‘lsa-da, (ya’ni so‘zlarni grammatik jihatdan to‘g‘ri tartibga solamasalar ham) ular ba’zan jumlaning umumiy ma’nosini tushunishi mumkin. Biroq, jumla tuzilishi va grammatik qoidalarni qoidalarni qo‘llashda sezilarli muammolar mavjud. Ular sintaktik jihatdan kerak bo‘lmagan elementlarni chetga surib, faqat asosiy ma’noni tushunishga harakat qiladilar.

- Semantik jihatdan (so‘zlarning ma’nosini tushunishda) nisbatan yaxshi natijalar ko‘rsatishi mumkin, biroq grammatik jihatdan to‘g‘ri shakllantirish qobiliyatlari zaiflashgan bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, “Grammatik jihatdan tegishli semantik tizim” nazariyasiga ko‘ra, sintaktik qoidalarni shakllantirishga xizmat qiladigan cheklangan semantik xususiyatlar to‘olami mavjud. Broka afaziyasida aynan shu semantik xususiyatlarni grammatik jihatdan qo‘llashga javob beradigan miya qismlari shikastlangani sababli bemorlar grammatik jihatdan to‘g‘ri jumalarni tuzishda qiynaladilar. Masalan, pour (quymoq), spill (to‘kmoq) kabi harakat fe’llari o‘xshash bo‘lsa ham, Broka afaziyasi bo‘lgan bemorlar ularni grammatik jihatdan to‘g‘ri qo‘llay olmaydi.

Bu holat tezda motor apraksiya (harakatlarning buzilishi) va harakat qiyinlashuvi bilan tavsiflanadigan artikulyatsiyaga o‘tadi, ammo til funksiyasida doimiy buzilishlar kuzatilmaydi. An’anaviy tarzda Broka afaziyasi deb ataladigan murakkab sindrom esa uzoq muddatli mutizm (so‘zlasha olmaslik), nutqiy shablonlar va agrammatizm bilan tavsiflanadi. Bu sindrom Broka sohasini, insulini

⁶ A. D. Friederici “The time course of syntactic activation during language processing: A model based on Neuropsychological and Neuropsychological data” - Brain and Language jurnali, 1995.



va chap o'rta miya arteriyasining yuqori qismi orqali qon bilan ta'minlanadigan qo'shni miya qismlarini qamrab olgan ancha katta infarkt bilan bog'liq.⁷

Xulosa qilib aytganda, Broka afaziyasi bemorlarida asosiy muammo sintaktik jarayonlarda, ayniqsa, grammatik jihatdan murakkab tuzilmalarni tushunishda va uni ishlab chiqishda yaqqol ko'zga tashlanadi. Ular so'zlarning tartibi, grammatik tuzilishi va jumlani to'g'ri shakllantirish qobiliyatlarini yo'qotadilar, garchi so'zlarning umumiy ma'nosini tushunishlari mumkin. Broka afaziyasi bemorlar uchun og'ir bo'lishi mumkin, chunki ular nima demoqchi ekanliklarini tushunishadi, lekin uni ifoda etishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Biroq, logopedik terapiya yordamida ularning nutq qobiliyatini tiklash yoki yaxshilash mumkin. Nutq terapiyasi Broka afaziyasida muhim rol o'ynaydi, bemorning gapirish, tushunish, yozish va o'qish qobiliyatlarini yaxshilashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mary-Louise Kean. Agrammatism. London – Academics Press:1985.
2. Ibodullayev Z. Tibbiyot psixologiyasi. Toshkent – Zamon nashr: 2019, 495b.
3. Aripov Z, Oripova O. Nutq buzilishining turlari va xususiyatlari (maqola).
4. Sharipova S. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda muloqot buzilishi muammosining nazariy tahlili (maqola). Analytical Journal of Education and Development: 2023.
5. Goodglass H, Kaplan E. The Assessment of Aphasia and Related to Disorders. Philaselphia – Lea & Febriger: 1972.

⁷ Mary-Louise Kean. Agrammatism. London – Academics Press: 1985.



**Journal of Analytical Synergy and Scientific
Horizon ISSN: 3060-5261 Impact faktor: 9.9
Volume 1, Issue 5, Series A 2025**

6. Levelt M. Speaking: From Intention and Articulation. Cambridge – MIT Press: 1989.
7. Fierderici A.D. “The time course of syntactic activation during language processing: A model based on Neuropsychological and Neuropsychological data” - Brain and Language journal: 1995.
8. Fierderici A.D. “Towards a Neural Basis of Auditory Sentence Processing”.



ESKI O‘ZBEK TILI LEKSIKASIDA OMONIMLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Nazarova Sabrina
Namangan davlat universiteti
Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: PhD., dots. Umidjon Qo‘ziyev
Email: nazarovasabrina046@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada eski o‘zbek tilidagi omonimlarning lingvopoetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Omonimlar adabiy matnda mazmuni boyitadi, ularning san’atli ifoda vositasi sifatidagi roli Atoyi asarlari misolida ko‘rsatiladi.

Tayanch so‘zlar va birikmalar: omonim, leksik omonimlik, eski o‘zbek tili, lingvopoetika, Atoyi, stilistika, badiiy tasvir, badiiy nutq, leksik-sematik xususiyat.

Annotation: This article explores the linguopoetic features of homonyms in Old Uzbek vocabulary. It highlights how homonyms enrich literary texts, with examples from Atoi's works.

Key words and phrases: homonym, lexical homonymy, Old Uzbek language, linguopoetics, Atoyi, stylistics, artistic imagery, artistic speech, lexical-semantic feature.

Аннотация: В статье рассматриваются лингвопоэтические особенности омонимов в лексике Староузбекского языка. Примеры из произведений Алишера Навои и Атойи показывают роль омонимов в художественном тексте.

Ключевые слова и выражения: омоним, лексическая омонимия, староузбекский язык, лингвопоэтика, Атойи, стилитика, художественное изображение, художественная речь, лексико-семантическая особенность.



Omonimlar – bu bir xil talaffuzga yoki yozuvga ega bo'lgan, lekin turli ma'nolarga ega bo'lgan so'zlardir. Ular ko'pincha kontekstga bog'liq holda tushuniladi va turli vaziyatlarda turlicha ma'nolarni anglatishi mumkin. Omonimlarning ma'nolari kontekstga qarab o'zgarishi natijasida, ularni to'g'ri anglashda qo'llanish holati alohida ahamiyat kasb etadi. Til boyligi va ifoda imkoniyatlarini kengaytiruvchi omonimlardan foydalanish adabiyotda va kundalik muloqotda qiziqarli uslubiy xususiyatlarni yaratadi.

Bugungi kunda omonimiya hodisasi tilshunoslikda keng o'rganilgan mavzu bo'lib, lug'aviy va grammatik birliklarda mavjudligi aniqlangan. Tadqiqotchilar, xususan, o'zbek tilshunosligida Sh.Rahmatullayev, M.Ravshanov, B.Suyunov, M.Jo'raboyeva, U.Tursunovva N.Rajabov, M.Mirtojiev, K.Usmonovlar tomonidan o'zbek tilidagi omonimiya hodisasining turli jihatlari chuqur o'rganilgan.⁸ O'rganilgan tadqiqotlarda omonimiya hodisasi qo'shimcha, so'z, ibora, tasviriy ifoda, so'z birikmasi, gap hattoki ishora (tinish belgi) darajasida mavjudligi aniqlandi. Bular affiks omonimiyasi, leksik omonimlik, frazaviy omonimlik, parafazaviy omonimlik, so'z birikma omonimligi, gap omonimligi va ishoraviy omonimlik kabi turlarga ajratiladi.⁹

Omonimiya hodisasini o'rgangan olim Y.Maslov shunday yozadi: "Til nazariyasida omonimiya va omonimning leksikografik ish amaliyotiga nisbatan ancha kengroq tushunilishidan kelib chiqish samaraliroq ko'rinadi. Biz omonimiya deganda ikkita turli belgilovchining bir xil talaffuzini tushunamiz. Bu bir tomondan so'zlar, morfema yoki morfemali birliklar hamda so'z birikmalari

⁸ Lafasova M. Omonimiyaga doir tadqiqotlar. Tilshunoslikning dolzarb masalalari respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari: 2022.

⁹ Rajabov F. Omonimiya. – Toshkent: Yangi kitob nashriyoti: 2019.



darajasidagi tushunchaga taalluqli. Ko'rsatilgan tarzda belgilangan tushunchaning ichida turli bo'limlarni ajratish mumkin".¹⁰

Yuqorida Y.Maslovning fikricha omonimlar bu – ikkita turli belgilovchi, ya'ni ma'no anglatuvchining bir xil talaffuz qilinishi sifatida baholagan. Vaholanki omonimlar ikki xil ma'noga ega bir xil talaffuz etiluvchi so'zlardir. Aynan omonimlarning qo'llanishi nutqning o'ziga xosligi belgilaydi.¹¹

G.Ismailov esa omonimlarga bag'ishlangan maqolasida: “Ma'lumki, omonimiya tuzilishi bir xillikka asoslangan, ammo ma'no jihatdan bir-biriga bog'liq bo'lmagan leksik hodisa hisoblanadi. Turli xil tillarda, qolaversa, o'zbek tilida omonimiya leksemalar o'rtasida o'zaro ta'sirning paydo bo'lishida muhim rol o'ynaydi”¹²– deb yozadi.

O'zbek tilining shakllanish va taraqqiyot bosqichlarini chuqur o'rganish, uning tarixiy qatlamlaridagi leksik-semantik hodisalarni tahlil qilish orqali til taraqqiyotining ichki qonuniyatlarini anglash mumkin bo'ladi. Shu jihatdan, Eski o'zbek tili (asosan XIV–XVI asrlar) o'zbek adabiy tilining shakllanish davri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu davrga oid yozma manbalar, xususan Alisher Navoiy, Lutfiy, Atoyi, Sakkokiy, Bobur kabi adiblarning asarlari o'zbek tili leksikasining boyligi va ifoda imkoniyatlarini namoyon etadi. Eski o'zbek tilining leksik qatlamida omonimlar alohida o'rin tutadi. Bu kabi so'zlar badiiy matnlarda stilistik boylik, so'z o'yini va mazmunning ko'p qirrali ifodalanishini ta'minlaydi. Omonimlar adabiy asarlarda kinoya, mubolag'a, majoz kabi badiiy vositalar bilan uyg'unlashgan holda qo'llanib, muallifning til mahoratini yoritadi. Quyida biz

¹⁰ 39 Маслов Ю.С. Омонимы в словарях и омонимия в языке (к постановке вопроса) // Вопросы теории и истории языка: Сборник в честь профессора Б. А. Ларина. – Л.: Изд-во Ленинградского ун-та, 1963.

¹¹ Lafasova M. Omonimiyaga doir tadqiqotlar. Tilshunoslikning dolzarb masalalari respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari: 2022

¹² Г.М. Омонимия транс терминов (на материале узбекского языка) Институт языка и литературы Академии наук Республики Узбекистан. 2012.



Atoyining tuyuqlarida qo'llanilgan omonimlarni leksik-semantik jihatdan tahlil qilamiz:

Telbaman shahlo ko'zung *olusidin*,

Uzmadim bog'ingda vasl *olusidin*.

Hajr dashtida yugurmog'lig' bila,

Yetmadim vaslingga yo'l *olusidin*.

Ushbu baytlarda uch marotaba takrorlangan “olus” so‘zi har safar turli ma’noda ishlatilgan bo‘lib, leksik-semantik omonim sifatida namoyon bo‘ladi: birinchi baytda qo‘llanilgan ‘ko’zung olusidin” birikmasidagi “olus” so‘zi “nuri, jozibasi, maftunkor ko‘z qarashi” ma’nosida ishlatilgan. Ikkinchi baytda kelgan “vasl olusidin” bu birikmada “olus” so‘zi vaqt, fursat, imkon ma’nosini anglatadi. Oxirgi baytdagi “yo‘l olusidin” birikmasida esa “olus” bosqich, holat, sabab mazmunida kelgan. Bu yerda “olus” so‘zi har xil semantik kontekstdan kelib chiqib uch xil ma’noda ishlatilgan, lekin leksik shakli bir xil. Bu esa leksik-semantik omonimning yorqin namunasi hisoblanadi.

Hamnishin ag'yor to ul *yoradur*,

Ko'kragim hasrat o'qidin *yoradur*.

May bila soqiy himoyat bo'lmasa,

Shahnayi hijron yurakni *yoradur*.

Bu baytda “yoradur” fe’li uch marta qo‘llanib, har safar turli semantik ma’noni ifodalagan:

- Ul yoradur — “u yordir”, ya’ni “u ma’shuqadir” ma’nosida (bo‘lish fe’li).
- Hasrat o‘qidin yoradur — “ezilmoqda”, “yurak yoriq holatda” (og‘riq bildiruvchi fe’l).



- Yurakni yoradur — “yurakni tilka-pora qilmoqda”, “azob bermoqda” ma’nosida.

Bir xil shakl (yoradur) uch xil ma’noda qo‘llanib, leksik-semantik omonimlik vujudga kelgan. Bu holat poetik ifodaning emotsional kuchini oshirgan.

Gar desam, bog‘i visoling *nori bor*,

Olma deb achchig‘lab aytur: *nori bor!*

Ishq naxli ko‘z yoshimdin suv ichib,

Bargu borini shararlig‘ *nori bor*.

Ushbu baytda “nori” so‘zi uch marta qo‘llangan bo‘lib, har gal turli kontekstlarda va turli semantik ma’nolarda namoyon bo‘lgan. Bu misralar ham leksik-semantik omonim sifatida tahlil qilinadi. Birinchi bayttidagi “nori” so‘zi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’noda, ya’ni meva — anor sifatida ishlatilgan. “Olma deb... nori bor” — bu yerda “nori” go‘zallik, jilva, sevgining vasfi sifatida kinoyaviy ma’noda keladi. Oxirgi misrada qo‘llanilgan “nori” so‘zi shar, ya’ni olov, jo‘shqin hislar, muhabbat alangasi ma’nosida metaforik mazmunda kelgan. Demak, baytdagi “nori” so‘zi bir xil fonetik shaklga ega bo‘lsa-da, har bir kontekstda o‘ziga xos semantik rol o‘ynaydi.

Sham yanglig‘ yonadur boshimda *o‘t*,

Ko‘z yoshimdin yer yuzinda undi *o‘t*.

Qon yoshim qildi yo‘lungni lolazor,

Muncha taqsir ayladim, qonimdan *o‘t*.

Ushbu baytda “o‘t” so‘zi uch marta takrorlanadi va har gal turli ma’noda ishlatilgan bo‘lib, omonimlikning badiiy-tasviriy quvvatini ko‘rsatadi. “O‘t” so‘zi



olov, dard yong‘ini ma’nosida, ya’ni shoir boshidagi holatni sham kabi yonayotgan azob sifatida tasvirlaydi. Ikkinchi misrada “o‘t” yana olov ma’nosida kelgan bo‘lsa-da, bu safar ko‘z yoshidan undirilgan olov ifodasi bilan ruhiy azob kuchaytiriladi. To‘rtinchi misrada “o‘t” so‘zi fe‘l bo‘lib, kechmoq, boshidan o‘tmoq ma’nosida ishlatilgan: “qonimdan o‘t” — ya’ni jonimga, qonimga qadar yetdi, qattiq jabr yetkazildi.

Bu baytda “o‘t” so‘zining har uchta holatda har xil ma’noda qo‘llanilishi — omonimlik orqali ruhiy iztirobning turli darajalarda ifodalanishini ko‘rsatadi. Bunday uslubiy mahorat badiiy nutqning poetik kuchini oshiradi va obrazlarni chuqurlashtiradi.

Jilva aylab sakraturda sarkash *ot*,

Noz o‘qin javlon etib jonimg‘a *ot*.

Itlaring xaylig‘a xizmat ayladim,

Qo‘ydilar ahli vafo deb manga *ot*.¹³

Ushbu baytda “ot” so‘zi uch marta takrorlanib, har biri turli ma’noga ega bo‘lib, omonimlik orqali turfa badiiy qatlamlar yuzaga kelgan. Birinchi baytda “ot” so‘zi bu yerda hayvon, sarkash ot ma’nosida ishlatilgan bo‘lsa, keying misrada fe‘l sifatida – otmoq, zarba bermoq ma’nosida qo‘llangan. Yakunlovchi misrada esa nom, laqab, unvon ma’nosida kelgan. Shoirga sodiqlik unvoni berilgan. Baytda “ot” so‘zi hayvoniy obraz, zarba ifodasi va ijtimoiy laqab shaklida qatnashib, omonimlik orqali turlicha ma’no qatlamlari yaratilgan. Bu esa badiiy ifodaning boyligi va ifoda erkinligining kuchli namunasi bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, eski o‘zbek adabiyotida omonimlar so‘z o‘yini, kinoya, majoz va boshqa badiiy vositalar bilan uyg‘unlashib, matnga

¹³ kh-davron.uz



chuqur ma'nolar va estetik xususiyatlar bag'ishlaydi. Bu esa asarning o'quvchi ongida yanada ta'sirchan va unutilmas bo'lishiga xizmat qiladi. Omonimlarning bu davrda qo'llanilishi badiiy matnlarning semantik va stilistik boyligini oshiradi. Ular leksik-semantik ko'p qirrali hodisa sifatida nutqning o'ziga xosligini ta'minlab, tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi. Shunday qilib, omonimlar eski o'zbek tilining lingvopoetik boyligini tashkil etuvchi asosiy elementlardan biri sifatida til va adabiyot tadqiqotlarida chuqur o'rganilishga loyiqdir. Ularning turli ma'nolarini kontekstda aniqlash, tilshunoslik va adabiyotshunoslikda muhim tadqiqot yo'nalishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A.I.Smirnitskiy "Некоторые замечания по английской омонимике"
2. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. Fan – Toshkent: 1985.
3. Dadaboyev H., Xolmanova Z. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. Toshkent: 2015.
4. Faxri Kamol. Ozbek tili leksikasi. O'zFA nashriyoti – Toshkent: 1953.
5. Hojiyev A. Mustaqillik sharoitida o'zbek tili lug'at tarkibining rivojlanish asoslari. O'zbek tili va adabiyoti – Toshkent: 1994.
6. Mirtojyev M. O'zbek tilida leksik omonimlarning vujudga kelishi: Filol.fan. nomzodi diss. ... avtoref. – Toshkent: 1963.
7. Mirtojyev M. So'zlarning shakliy munosabatiga ko'ra tiplari . O'zbek tili leksikologiyasi. Fan – Toshkent: 1981.



- 8.12. Pinxasov Y. Hozirgi zamon ozbek tili leksikasi. –Toshkent: 1960.
9. Tursunov U, Rajabov N. Omonimlarning paydo bo‘lish yo‘llari . O‘zbek tili grammatik qurilishi va dialektologiyasi masalalari. – Toshkent: 1966.
10. Вардудль И.Ф. Место семантики в лингвистическом описании//Вкн.: Проблемы семантики. – М.: Наука, 1974.
11. Г.М. Омонимия транс терминов (на материале узбекского языка) Институт языка и литературы Академии наук Республики Узбекистан.2012.
12. Маслов Ю.С. Омонимы в словарях и омонимия в языке (к постановке
13. вопроса) // Вопросы теории и истории языка: Сборник в честь профессора Б.
14. Равшанов М. Омонимы в толковом словаре узбекского языка. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1991.
15. . Rajabov F. Omonimiya. – Toshkent: Yangi kitob nashriyoti, 2019.
16. Madvaliev, A. 2006-2008. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, – Toshkent.
17. Xudjaeva, R.M. 2017. Genetik bog‘lanmagan leksik omonimlar samaradorligi. Monografiya. – T.: Fan va texnologiya,
18. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I, II, III, IV, V jildlar – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006-2008.



**JOURNAL OF ANALYTICAL SYNERGY AND
SCIENTIFIC HORIZON (JASSH) VOLUME-1, ISSUE-5,
SERIES A (JUNY)**

TABLE OF CONTENTS

1	Abdug‘apporov Ismoiljon Qayumjon o‘g‘li MAKTAB TIZIMIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISHDA PEDAGOGIK AMALIYOTNING AHAMIYATI	4-12
2	A‘zamova Mehribon SIROJIDDIN SAYYID SHE‘RIYATIDA AN‘ANA VA NOVATORLIK TENDENSIYALARI	13-17
3	Xujaqulova Aziza Elbek qizi SMARTFON JAHON ADABIYOTIDA FENTEZING TUTGAN O‘RNI: TURLARI VA TASNIFI	18-23
4	Xolboyeva Farangiz Ibrohim qizi YAPON TILI VA O‘ZBEK TILIDAGI HURMAT SHAKLLARI QIYOSIY TAHLILI	24-29
5	Nazarova Sabrina BROKA AFAZIYASI VA UNING NUTQDA AKS ETISHI	30-34
6	Nazarova Sabrina ESKI O‘ZBEK TILI LEKSIKASIDA OMONIMLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI	35-42
	OUTLINE	43